

ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQINDILAR  
MUAMMOSI VA UNING YECHIMI

*Ahmedova Dilfuza Mahammadovna*

*Farg'ona davlat universiteti,*

*«Ekologiya» kafedrasida dotsenti,*

*Biologiya fanlari nomzodi*

*Turdimatova Hafizaxon Sultonali qizi*

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

*Turdimatova Qutlug'beqa Sultonali qizi*

*TATU Farg'ona filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri atrof-muhitga chiqarib yuborilayotgan chiqindilarni keskin kamaytirish va ularni qayta ishlash usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiat, ekologik muammolar, atrof-muhit muhofazasi, maishiy va sanoat chiqindilari, chiqindi poligonlari, qayta ishlash usullari.

**Abstract:** In the mentioned article, one of the current pressing issues is highlighted, which is reducing the emissions released into the environment and the methods of their reprocessing are explained.

**Key words:** Nature, ecological problems, environmental protection, household and industrial waste landfills, landfills, recycling methods.

**Kirish.** Hozirgi kunda atrof-muhit holati texnogen omillar tomonidan to'xtovsiz ifloslanib borishi hech kimga sir emas. Texnogen omillar atmosfera havosiga, suv havzalariga va yer qatlamiga gazsimon, suyuq va qattiq chiqindilarni tashlamoqda. Ushbu chiqindilar turli kimyoviy birikmalar ko'rinishida bo'lib, ular tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir birikmalarning toksikologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

Atrof-muhitning ifloslanishida suv, tuproq, atmosfera havosi, o'simlik, hayvonot dunyosiga ta'siri oqibatida insonlarda turli xil kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu hol birgina davlatni emas, balki barcha davlatlarni o'zaro va xalqaro hamqorlikda bo'lishini talab etadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lishining yillik hajmi pragnozi 14-14,5 mln tonna atrofida baholanadi.

Aholining o'rtacha 1,5 % foizga ko'payish sur'atini hisobga olganda esa, ushbu ko'rsatkich 2028-yilga kelib 1616,7 mln tonnaga yetishi mumkin.

Hozirgi vaqtda chiqindilar ekologik xavfsizlikka va fuqarolar sog'ligiga tahdid soluvchi muammoga aylanmoqda. Qattiq maishiy chiqindilar atrof-muhit va inson

salomatligi uchun ekologik xavf-xatar (yer usti va yer osti suvlari va atmosferaning ifloslanishi, badbo'y xid tarqalishi, yong'in kelib chiqish xavfi, turli yuqumli infeksiyalar tarqalish manbai hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

F.Sh.Xudoyberdiyev (2022) ta'kidlashicha, O'zbekiston xududida 100 million t.dan ortiq turli chiqindilar joylashgan bo'lib, ularning 14% dan ortig'i zaharlidir. 1 yilda hosil bo'ladigan zaharli chiqindilarning 0,08 % utilizatsiya qilinadi, 0,11% shartnoma bo'yicha boshqa tashkilotlarga o'tkaziladi, qolgan qismi esa uyushgan saqlash joylariga yuboriladi. Chiqindilarning umumiy miqdorining atigi 0,2 % ikkilamchi resurslar shaklida ishlab chiqarishga qaytariladi. Asosiy massa chiqindilarni saqlash joylarida, korxonalar xududlarida to'planadi.

O'zbekistonda har yili 7 million tonna qattiq maishiy chiqindilar paydo bo'lmoqda. Aholi jon boshiga 2%, bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 2 barobar ko'p.

D.M.Ahmedova, N.Y. Nizomov, R. Ahmedov (2022) qayd etishlaricha, bir tonna ishga yaroqsiz rezina va avtoshinalar yoqib yuborish yo'li bilan yo'q qilinsa, undan atmosferani ifloslantiruvchi, inson salomatligiga jiddiy ta'sir etuvchi 16 xil zaharli benzin bug'i, rezina changi, uglerod oksidi, azot oksidi, xloropren kabi moddalar ajralib chiqadi. Ana shu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida qattiq maishiy chiqindilardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilinish bilan atrof-muhitni zaharli chiqindilardan saqlab qolish mumkun.

### MUHOKAMA

Mamlakatimizda 2022 yil davomida chiqindilarni yig'ib olish miqdorini 95%

g

a Respublikamiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 30 noyabrdagi PF-5863-sonli Farmoni"ning 1-ilova, V-bobida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida belgilangan yo'nalishlar, ya'ni ifloslantiruvchi moddalarni atmosfera havosiga chiqarilishini kamaytirish maqsadida, amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarining atmosfera havosini ifloslantiruvchi stasionar manbalarida samaradorligi 95 foizdan past bo'lmagan chang va gazlarni tutib qoluvchi qurilmalar qo'llanilishini ta'minlash kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

a Ma'lumki, yaratilayotgan yangi texnikalar va maishiy buyumlar vaqt o'tishi bilan yaroqsiz holatga keladi. Bu esa chiqindi poligonlaridagi chiqindilar miqdorini yana ham ko'payishiga olib keladi. Ba'zi poligonlarning maydonlari chiqindilarni vaqtincha saqlash, birlashtirish va ko'chirish yoki chiqindilarni qayta ishlashning turli bosqichlarida masalan, saralash, tozalash yoki qayta ishlash uchun ishlatiladi.

q

### NATIJALAR

a Chiqindini qayta ishlash usulida asosan metallar tayyorlashda ko'p

y

t

a

foydalaniladi, masalan, aluminiy, mis, molibden, titan, nikel va boshqalar.

Chiqindini qayta ishlash usuli asosan ikki qismga bo'linadi. Birinchisi, metallarning fizikaviy holatini o'zgartirish, ikkinchisi esa kimyoviy tuzilmalarni yangilashdan iborat.

Metallarning fizikaviy holatini o'zgartirishda, metal qayta ishlash qurilmasida chiqindining isitilish yoki sovuq qoplamalari yordamida chiqindining qayta ishlanishi amalga oshiriladi.

Kimyoviy tuzilmalarni yangilash esa, metall qayta ishlash qurilmasida chiqindining oksidlanishining kamaytirilishi, chiqindining tarkibidagi yuqori tarkibiy elementlar (masalan, mis, nikel va boshqalar) miqdorining oshirilishi va yangi tuzilmalar tashkil topishiga sabab bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar yordamida amalga oshiriladi

Chiqindini qayta ishlash usuli metallar tayyorlashda qo'llaniladi. Shuningdek, metall qayta ishlash orqali qayta ishlanishi va uning qo'llanilishi sohasini kengaytirish imkoniyatlarini beradi.

Qayta ishlangan metallar ko'plab sohalarda qo'llaniladi;

1. Avtomobil sanoati: Qayta ishlangan metallar avtomobil ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Aluminiy, mis, molibden, titan, nikel va boshqa metallar avtomobilning yorug'lik va tajribali bo'lishini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Aluminiyli jildlarning yorug'lik va yuqori darajada kuzatilishi uchun, havo ko'rsatkichlarida, jildlarida va yuqori tezlikli pochta xizmatlarida qo'llaniladi.

2. Aero-kosmik sanoat: Aero-kosmik sanoatda, qayta ishlangan metallar aviamashinalar va kosmik apparatlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu metallar yorug'lik, kuzeta va yorqinlikli bo'lishi sababli qo'llaniladi.

3. Elektr energiya tizimlari: Elektroenergetikada, qayta ishlangan metallar yorug'lik, undirish qobiliyati va boshqa xususiyatlariga qarab qo'llaniladi. Misol uchun, aluminiydan tayyorlangan kuzatuvchi va boshqa elementlar elektr tizimlari uchun qo'llaniladi.

4. Kimyo sanoati: Qayta ishlangan metallar kimyo sanoatida qo'llaniladi. Aluminiy, molibden, titan va boshqa metallar kimyo sanoatida, masalan, qizil molekular katalizatorlarni tayyorlashda foydalaniladi.

5. Qurilish sanoati: Qayta ishlangan metallar qurilish sanoatida shuningdek, konstruksiya, qurilish materiallari va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish sohasini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va qayta jihozlash natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori 2,1-martaga, oqava suvlarning tashlanishi 2-martaga kamaydi.

## XULOSA

Atrof - muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xoʻjalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, atrof-muhitga chiqarib yuborilayotgan chiqindilarni keskin kamaytirish va ularni zararsizlantirishda quyidagilar chora-tadbirlari belgilanishi tavsiya etiladi:

1. Atrof-muhit ifloslanishdan saqlashda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sanoat chiqindilarni utilizatsiya qilish ustidan nazoratni kuchaytirish. Shu maqsadlarda, ilm-fan yutuqlarini va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalarni samarali tozalash inshootlari bilan jihozlash tizimiga eʼtiborni qaratish;

2. Atrof-muhitni sogʻlomlashtirish, isrofgarchilikni oldini olish, sanoat chiqindilaridan qayta foydalanish bilan iqtisodiy samaradorlikka erishish;

3. Ishlab chiqarishda hosil boʻladigan chiqindilar miqdorini keskin kamaytirish maqsadida, takroran ishlov berish va yopiq zanjir tizimda faoliyat koʻrsatadigan ishlab chiqarish majmui komplekslaridan foydalanishni yoʻlga qoʻyish;

4. Ikkilamchi chiqindi modda va mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qiladigan yangi, samarali texnologiyalarni yaratish va ularni amalga oshirilishini ragʻbatlantirish;

5. Sanoat korxonalari xududida manzarali oʻsimliklar turlarini koʻpaytirish

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. 2. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2005.
3. X.T.Tursunov, T.U.Rahimova. Ekologiya. Toshkent. 2006.
4. T.A.Abdurahimov, Z.A.Jabborov Tuproqlarni ifloslanish muammolar va muhofaza qilish tadbirlari. Toshkent. 2007
5. Ahmedova, D., & Turdimatova, H. S. (2022). PROBLEMS OF PRODUCTION OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY PRODUCTS. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(12), 12-16.
6. Ahmedova, D. M., Nizomov, N., Ahmedov, R., & Turdiyeva, N. (2022). ATROF MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQUINDILAR MUAMMOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 696-702.
7. Akhmedova, D. M., & Turdieva, N. (2021). Bio ecological characteristics of climatic landscape plants of fergana city. ACADEMICIA: An International

Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1390-1394.

8. Ahmedova, D., & Turdieva, N. (2022). AGROTECHNOLOGY OF ORNAMENTAL TREE AND SHRUBS. *Journal of New Century Innovations*, 11(4), 1390-1394.
9. Akhmedova, M., & Akhmedova, D. (2021). Clinical features and risk factors for the development of atopic bronchial asthma combined with allergic rhinosinitis in children. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 1015-1020.
10. Dilfuzahon, A., Nizomiddin, N., Rakhmiddin, A., & Nilufar, T. (2022). Changes In Soil Pollution Status And Fertility Indicators. *Journal Of Academic Research And Trends In Educational Sciences*, 1(10), 396-400.